

IMOM AL-BUXORIY HAYOTI VA IJODI

Alijonova Ruqiyaxon

Farg‘ona Davlat Universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich 25.107-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19968808>

Annotatsiya. Ushbu tezisda Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati, hadis ilmidagi beqiyos xizmatlari hamda islom olamidagi tutgan o‘rni yoritiladi. Ayniqsa, uning “Al-Jome’ as-Sahih” asari, hadislarni saralashdagi qat’iy mezonlari, ishonchli hadislar hamda ilmga oid hadislar tahlili va ma’naviy merosi ilmiy nuqtai nazardan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Imom al-Buxoriy, hadis ilmi, Sahih al-Buxoriy, muhaddis, ilm, alloma, hadis, Buxoro, ilmiy meros.

Imom al-Buxoriy islom olamining eng buyuk muhaddislaridan biri bo‘lib, hadis ilmining sultoni sifatida tanilgan. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bo‘lib, hijriy 194-yil, milodiy 810-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan. Yoshligidan ilmga bo‘lgan kuchli qiziqishi sababli hadis ilmini chuqur o‘rganishga kirishgan.

Imom al-Buxoriyning otasi Ismoil ibn Ibrohim ilmi va taqvodor inson bo‘lgan. U farzandining ilm olishiga katta e’tibor bergan. Yosh Muhammad juda kuchli xotira egasi bo‘lib, o‘n yoshidayoq hadislarni yod olish bilan mashhur bo‘lgan. U dastlab Buxoroda, keyinchalik esa Makka va Madinada ilm tahsil olgan Hadis ilmini mukammal o‘rganish maqsadida Imom al-Buxoriy ko‘plab mamlakatlarga safar qilgan. Bag‘dod, Basra, Kufa, Damashq, Misr, Hijoz kabi ilm markazlarida mashhur muhaddislardan saboq olgan. U mingdan ortiq ustozlardan hadis rivoyat qilgan va olti yuz mingga yaqin hadisni to‘plaganligi manbalarda qayd etiladi [2].

Imom al-Buxoriyning eng mashhur asari — “Al-Jome’ as-Sahih” bo‘lib, u “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan butun dunyoga mashhurdir. Ushbu kitob Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida e’tirof etiladi. Olim hadislarni kitobga kiritishda roviylarning ishonchligi, hadis matnining aniqligi va rivoyat zanjirining uzluksizligiga alohida e’tibor bergan [3].

Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan mashhur hadislardan biri quyidagidir:

“Amallar niyatlarga bog‘liqdir. Har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi” [4].

Mazkur hadis islom axloqi va inson ma’naviyati uchun juda muhim hisoblanadi. Bu hadis insonning har qanday ibodati, ilmi, mehnati va kundalik faoliyati avvalo pok niyat bilan amalga oshirilishi lozimligini anglatadi. Masalan, ilm olish faqat martaba yoki manfaat uchun emas, balki foydali inson bo‘lish va Alloh roziligini topish uchun bo‘lishi kerak. Shu sababli ushbu hadis tarbiya va axloq masalalarida eng asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi [5].

Ilmga oid mashhur hadislardan yana biri quyidagicha rivoyat qilinadi:

“Kim ilm izlab yo‘lga chiqsa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qiladi” [6].

Ushbu hadis ilm olishning naqadar ulug‘ amal ekanini ko‘rsatadi. Islom dinida ilm faqat dunyoviy manfaat emas, balki oxirat saodatiga eltuvchi vosita sifatida ham qaraladi. Inson ilm orqali o‘zini tarbiyalaydi, jamiyatga foyda keltiradi va haqiqatni anglaydi. Imom al-Buxoriy o‘z hayoti bilan aynan shu hadis mazmunini isbotlagan, chunki u ilm izlab uzoq safarlar qilgan va butun umrini hadis ilmini rivojlantirishga bag‘ishlagan [7].

Shuningdek, uning “Al-Adab al-Mufrad”, “At-Tarix al-Kabir”, “At-Tarix as-Sag‘ir”, “At-Tarix al-Avsat” kabi ko‘plab asarlari mavjud. Bu asarlar nafaqat hadis ilmi, balki islom tarixi va axloqiy tarbiya masalalarida ham muhim manba hisoblanadi.

Imom al-Buxoriy umrining so‘nggi yillarini Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida o‘tkazgan. U 870-yilda shu yerda vafot etgan. Bugungi kunda uning maqbarasi nafaqat O‘zbekiston, balki butun musulmon olami uchun muqaddas ziyorat maskani hisoblanadi.

Bu haqda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday yozadi: “Imom al-Buxoriy hadis ilmini eng oliy darajaga olib chiqqan va ummat uchun bebaho meros qoldirgan buyuk allomadir” [8].

Xulosa qilib aytganda, Imom al-Buxoriy butun islom olamining faxri bo‘lgan ulug‘ muhaddisdir. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, hadis ilmidagi xizmatlari, sahih hadislarni jamlashdagi mashaqqatli mehnati va ilmga bo‘lgan sadoqati har bir avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Imom al-Buxoriy. Al-Jome‘ as-Sahih. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019, 25–40-b.
2. Abdulaziz Mansur. Islom tarixi. – Toshkent: Sharq, 2008, 112–118-b.
3. Azimov A. Hadis ilmi tarixi. – Toshkent: Movarounnahr, 2010, 56–63-b.
4. Imom al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, “Vahy boshlanishi” kitobi, 1-hadis.
5. Imom an-Navaviy. Arba‘in an-Navaviy. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018, 12–15-b.
6. Imom Muslim. Sahih Muslim, “Zikr va duo” kitobi, 2699-hadis.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017, 85–90-b.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017, 75–82-b.